

1. Suvni nima uchun asrash kerak?



Suratlarga qarang. Qaysi daryo yoqasida yashashni xohlar edingiz? Nima uchun suv havzalarini toza holda saqlash haqida qayg'urish kerakligini ayting.



1



2



Suvning ifloslanishiga nimalar sabab bo'layotganini ko'rib chiqing. Bu yerda ko'rsatilmagan yana qanday sabablarni aytib bera olasiz? Bu holatlarning har birida suvni iflos qilmaslikning yo'li bormi?



2. Qishloq xo'jaligi uchun yangi texnologiyalar



Nima deb o'ylaysiz? Eski, sinalgan usullarda ham yashab, ishlayverish mumkin bo'lsa, ilm o'rganib, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish shartmi?

Suvni toza saqlashning o'zi yetarli bo'lmaydi, uni tejamkorlik bilan sarflash ham kerak. Hozirgi kunda ekinlarni sug'orishda suvni tejashning juda ko'p usullari o'ylab topilgan. Eng tejamkor usullardan biri – tomchilatib sug'orish bo'lib, bunda suv har bir o'simlikning ildiziga tomchilab turadi.



Tomchilatib sug'orish

Zamonaviy dehqonchilikning yana bir usuli – bu o'simliklarni gidrogel bilan ekish. Bu usul ham suvni anchagina tejashga yordam beradi, chunki maxsus gel namlik va o'g'itni o'zida saqlab turib, asta-sekinlik bilan uni o'simliklarga yetkazib turadi. Bunday usulda suvni ikki baravar kamroq sarflash mumkin.



O'simliklarni gidrogel bilan ekish



Dehqonchilik, ya'ni o'simliklarni o'stirish bilan shug'ullanadigan kishilarning kasblarini ayting.

3. Sanoat va suv

Sanoatning rivojlanishi, zavod-fabrikalarning qurilishi suv havzalariga katta zarar yetkazadi. Ko'pgina zavodlar asbob-uskunalarini yaqin-atrofdagi daryo va ko'llarning suvi bilan sovitib, yuvib, keyin yana suv havzasiga qaytarib quyadi. Natijada suvga metall parchalari yoki zararli moddalar tushishi mumkin. Ko'plab zavod-fabrikalar suv tozalash uchun filtrlar qo'yadi, lekin bu filtrlar har doim ham suvni to'liq tozalay olmaydi.

Daryo va ko'llarning ifloslanishi quyidagi ayanchli oqibatlariga olib keladi:

- suvda kislorod kamaygani sababli, bu suv havzasida yashaydigan jonzorlar ham kamayib ketadi;
- suvda erigan zararli moddalar suv o'tlarida to'planib qoladi, keyin bu o'tlarni baliq yoki boshqa jonzorlar yeydi;
- suvning o'zi ham zaharlanib, jonzorlar yoki inson uchun xavfli bo'lib qoladi.



Daftaringizdagi rasmlar ostiga suvning qanday ifloslanish turlarini ko'rayotganingizni yozing. Daryolarni bunday ifloslanishdan himoya qilish bo'yicha takliflar bering.



Sayyoramizning juda ko'p joylarida suvning ifloslanish muammosi bor: dunyo aholisining taxminan sakkizdan bir qismi toza suvdan mahrum. So'nggi bir necha o'n yillar ichida Yer yuzi aholisining har biriga to'g'ri keladigan chuchuk suvning o'rtacha miqdori ikki baravar kamaygan. Yurtimizda ham chuchuk suv tanqisligi jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Bu muammoni zudlik bilan hal qilishimiz kerak.

4. Suvni qanday asrash kerak?

Inson kundalik hayotda faqat chuchuk suvdan foydalanadi. Chuchuk suv insonga nafaqat ichish va taom tayyorlashi uchun, balki yuvinish, kir yuvish, uy tozalash uchun ham kerak. Bugungi kunda uylarimiz suv yordamida isitiladi, ko'chalar, istirohat bog'lari favvoralar bilan bezatiladi.

Yildan yilga ehtiyojlarimiz uchun tobora ko'proq suv ishlatmoqdamiz. Biz tabiatdan top-toza suv olamiz-u, lekin unga kimyoviy va maishiy chiqindilar bilan ifloslangan suvni qaytarib beramiz. Bunday suv esa o'simliklar uchun ham, jonzotlar uchun ham, insonlarning o'zi uchun ham nihoyatda zararli. Turli davlatlardagi ekolog va muhandislar ifloslangan suvni tozalashning bir necha usulini o'ylab topishdi. Lekin hali bu sohada qilinadigan ishlar juda ko'p.

Siz ham tabiatni asrashga, demakki, Yer yuzida hayotni saqlab qolishga o'z hissangizni qo'sha olasiz.



1. Suvning ifloslanishi qanday sodir bo'ladi?
2. Siz yashayotgan joyda suv bilan bog'liq qanday muammolar bor?



Internetdan biror yirik ekologik falokat haqida ma'lumot topib, shu haqda kichikroq ma'ruza tayyorlang.